

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№8

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
avgust



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
238 sahifa, avgust, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Visualdsp++ platformasida raqamli signal protsessorlarini dasturlash texnologiyasi	12
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
Tadbirkorlik tushunchasi: falsafiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik tahlil.....	19
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
Xorijiy davlatlar sog'liqni saqlash tizimida investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmi.....	26
Karabayev Sanjar Abdusamatovich	
Feasibility study and site optimization for small hydropower plants along the syr darya river in Uzbekistan.....	33
Karimov Mustafu Aminbayevich, Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
Agrar sohada risklarning o'zaro ta'sirchan tarzda namoyon bo'lish xususiyatlari.....	42
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Parrandachilik mahsulotlari omilli tahlil qilishda indeks usulidan foydalanish.	47
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
O'zbekiston telekommunikatsiya sohasida raqamlashtirish jarayonlarini samarali boshqarish: "O'zbektelekom" ak misolida	56
Islamov Javlon Rasulovich	
Tijorat banklari amaliyotida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish yo'nalishlari.....	59
Rustamov Sunnatillo Rustamovich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdagi ulushi va uning o'zgarish tamoyillari	66
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Norasmiy bandlikning yashirin iqtisodiyot shakllanishi va dinamikasiga ta'sirining nazariy va amaliy jihatlar	72
Xasanov Jaxongir Jamshidovich, Sharifxo'jayev Shavkat Oqilovich	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlarning amaliy holati va dinamikasi	80
Irgasheva Nigora Akbarovna	
Туристская мобильность стран персидского залива как устойчивый и перспективный источник въездного туризма в Узбекистан	87
Гольшева Елена Вячеславовна; Додиев Феруз	
O'zbekistonda sug'urta bozori holati va o'sish sur'ati	96
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Davlat xaridlarida narxning eng yuqori chegarasi: huquqiy mexanizm va amaliy ahamiyati	101
Mamasoliyev Abrorbek Abdug'ani o'g'li	
O'zbekiston respublikasida norasmiy sektor va aholini norasmiy mehnat bilan bandligining legallashtirishini boshqarishni istiqbolli ko'rsatkichlari	105
Qoraboev Nuriddin Pardaboy o'g'li	
Разработка инновационных инструментов и механизмов стратегического управления проектами.....	110
Мансурова Севара Мансуровна	
Sug'urta kompaniyalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning metodologik asoslari: nazariy va amaliy jihatlar	114
Haqberdiyev Bekzod O'ktamovich	
Учёт и аудит обязательств на предприятиях: анализ зарубежного опыта и практики	120
Халыкназарова Гулназ Жалгасбай кызы	
Theoretical Basis for Ensuring a Cotton Layer on a Conveyor Belt	126
G'.R.Rakhmatov	



Korxonalarning moliyaviy barqarorligini boshqarish	132
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li	
Targetlangan iqtisodiy siyosat orqali kambag'allikka qarshi kurash.....	138
Baratov J.N.	
Jismoniy shaxslarning daromadlariga deklaratsiya asosida soliq solish mexanzmini takomillashtirish	144
Ibragimov Zafar Ismailovich	
Bekobod sement zavodida ishlab chiqarish jarayonlarida og'ir mehnat omillarini avtomatlashtirish orqali xavfni kamaytirish	152
Ishchanov Atabay Reyimberdiyevich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdagi ulushi va uning o'zgarish tamoyillari	159
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Практические подходы к выявлению и оценке налоговых рисков на основе сегментации деятельности налогоплательщиков	164
Голубова Ольга Сергеевна, Элбаева Мукаддас Рашидовна	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish	170
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
O'zbekistonda innovatsion faoliyatga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillar.....	176
Anasxon Yunusov A'zamjon o'g'li	
Применение метода анализа иерархий для выбора оптимальной экспортной стратегии: на примере Узбекских предприятий, экспортирующих товары в россию.....	180
Муниса Мирзалиевна Турдибаева	
Processing of Sulfide Copper Ores With Copper and Silver Recovery.	185
Mamaisakova Zebo Bahodir qizi	
Korxonalar eksport salohiyatini rivojlantirishning xorij tajribasi.....	189
Naimxonov Ma'rufxon Zokirxon Og'li	
Corporate Governance Reforms and Financial Performance Dynamics: Evidence From State-Owned Banks in Uzbekistan	194
Yusufjon Pulatov, Bakhtiyor Islamov	
Tijorat banklari tomonidan kreditlash mexanizmining uslubiy jihatlari va o'ziga xos xususiyatlari	200
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Восстановление геологических сигналов с использованием кубических базисных сплайнов.....	204
Гофуржонов Мухаммадали, Гофуржонова Маржона	
Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning amaliy jihatlari	210
Madaminov Bekzod Allayarovich	
Moliyaviy savodxonlik va moliyaviy siyosatning o'zaro ta'siri: O'zbekiston va xalqaro tajriba tahlili.....	215
Irgashev Anvar Farxodovich	
Yashil moliyalashtirishda moliyaviy instrumentlar.....	220
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
Sanoatni rivojlanish tendensiyalari va o'ziga xos xususiyatlari (Xorazm viloyati misolida).....	224
Salayev Jasurbek Komilovich	
Tijorat banklari raqobatbardoshlik qobiliyatini oshirish bo'yicha xorij tajribasi va uni O'zbekiston tijorat banklari faoliyatida qo'llanilishi.....	230
Shamsiyev Nurbek Fazliddin o'g'li	

TIJORAT BANKLARI RAQOBATBARDOSHLIK QOBILIYATINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI VA UNI O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA QO'LLANILISHI

Shamsiyev Nurbek Fazliddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklari raqobatbardoshlik qobiliyatini oshirish bo'yicha xorij tajribasi va uni O'zbekiston tijorat banklari faoliyatida qo'llanilishi yoritilgan. Bunda tijorat banklarining raqobatbardoshlik darajasini oshirish bo'yicha xorijiy banklarning usullari, Bank of America bankining daromadlari va raqobatdosh xizmat turlari tahlil qilingan. Hamda O'zbekiston tijorat banklarining ham ayrimlarining raqobatdosh xizmat turlari, ularning daromadliligi tahlil qilingan. Tijorat banlarining raqobatdoshligi bo'yicha xorij tajribasi o'rganilgan va xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: bank raqobatdoshligi, bank xizmatlari, innovatsion yondashuv, strategik boshqaruv, bozorda farqlanish, differensiallashuv, mijoz sodiqligi, tejamkorlik, samaradorlik.

Abstract: This article examines foreign experience in increasing the competitiveness of commercial banks and its application in the activities of commercial banks in Uzbekistan. It analyzes the methods used by foreign banks to improve the competitiveness of commercial banks, the income of Bank of America and the competitiveness of services. The competitiveness of services of some Uzbek commercial banks and their profitability are also analyzed. Foreign experience in managing the competitiveness of commercial banks is studied and conclusions are made.

Keywords: competitiveness of the banking sector, banking services, innovative approach, strategic management, market differentiation, differentiation, customer loyalty, cost efficiency, performance.

Аннотация: В данной статье рассматривается зарубежный опыт повышения конкурентоспособности коммерческих банков и его применение в деятельности коммерческих банков Узбекистана. Анализируются методы, применяемые зарубежными банками для повышения конкурентоспособности коммерческих банков, доход Bank of America и конкурентоспособность услуг. Также анализируются конкурентоспособность услуг некоторых узбекских коммерческих банков и их рентабельность. Изучается зарубежный опыт управления конкурентоспособностью коммерческих банков и делаются выводы.

Ключевые слова: конкурентоспособность банковской сферы, банковские услуги, инновационный подход, стратегическое управление, рыночная дифференциация, дифференциация, лояльность клиентов, эффективность затрат, результативность.

KIRISH

Hozirgi sharoitda banklar o'rtasidagi raqobat nafaqat ichki bozorda, balki mintaqaviy va global moliyaviy maydonda ham kuchayib bormoqda. Markaziy Osiyodagi bank tizimlari o'rtasidagi integratsion jarayonlar, xalqaro reyting agentliklarining baholari, moliyaviy inklyuziya darajasi va fintex ekotizimining rivojlanishi banklar raqobatbardoshligini oshirishda yangi muammolar va imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda.[1]

Tijorat banklarining raqobatbardoshligini boshqarish – bu banklar strategik rivojlanishining ajralmas qismi bo'lib, u xizmatlar diversifikatsiyasi, mijozlar ehtiyojlarini tahlil qilish, xatarlarni aniqlash va ularni boshqarish, xodimlar malakasini oshirish hamda marketing strategiyalarini takomillashtirishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, jahon tajribasi ko'rsatadiki, bank sektorida raqobatbardoshlikni ta'minlashda xizmatlar innovatsiyasi, raqamli mahsulotlar ishlab chiqish va mijozga yo'naltirilgan yondashuv muhim rol o'ynaydi.[2]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son-2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 fevraldagi PF-37-son-O'zbekiston-2030 strategiyasini «Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi Farmonlari, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son-2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish to'g'risidagi farmonlari, 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-son-Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori va soha taraqqiyotiga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan



bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish[7] vazifalarni bajarishda mazkur ilmiy maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklarida raqobat nafaqat mijozlarni ko'proq jalb qilish, balki resurslar, kreditlar va boshqa moliyaviy mablag'larga bo'lgan kurash sharoitida ham yanada kengroq namoyon bo'ladi. Mahalliy olimlardan Qurbonov o'zing ilmiy tadqiqotlarida bank tizimining barqarorligini ta'minlashda bank kapitallashuv darajasini oshirishning zamonaviy yo'llariga alohida e'tibor qaratgan (Kurbanov, 2022; Kurbanov, Asirarov, 2022; Kurbanov, 2021). Yana bir iqtisodchi olim Yuldasheva (2022) "Bank raqobati – moliya bozorining ishtirokchilari, xususan, kredit tashkilotlari o'rtasidagi kreditlar, depozitlar va boshqa bank mahsulotlarini sotish uchun kurash sifatida qaralishi, hamda doimiy tadqiqotlar o'tkazib borilishi kerak bo'lgan jarayon sifatida baholanishi lozim" deya ta'kidlagan. Xorijlik ayrim iqtisodchilarning fikriga ko'ra "banklararo raqobat banklarning riskli faoliyatini kuchaytirishi mumkin, chunki banklar o'z mijozlariga qulay shartlar taklif qilish orqali ko'proq mijozlarni jalb qilishga intiladi, bu esa ularning riskli aktivlarini oshirishi mumkin. Boshqa tomondan, raqobat banklarni yanada samarali ishlashga va innovatsion yondoshuvlarni joriy etishga undaydi, bu esa ularning barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi" (Klapper, Leora & other, 2009). Yana bir boshqa xorijlik olimlar "Bozor raqobati kuchayganda, banklar mijozlarni jalb qilish uchun kredit foiz stavkalarini pasaytirishga va depozit stavkalarini oshirishga majbur bo'lishi mumkin, bu esa ularning daromad marjasini pasaytiradi va moliyaviy mustahkamligiga ta'sir qilishi mumkin (Christian, Kersting & other, 2020)" deb ta'kidlashadi. Umuman olganda, banklararo raqobat sharoitida tijorat banklari barqarorligini ta'minlashning zarurligi shundaki, banklar raqobatga kirishish natijasida o'zlarining kuchli va kuchsiz tomonlarini tahlil qilishi, bank xizmatlari bozoridagi roli va ulushini yanada oshirish uchun strategiyalar ishlab chiqishi, mijozlar bilan o'zaro munosabatlarda innovatsion yondoshuvlarni yanada kuchaytirish imkoniyatlarini oshirishlari mumkin bo'ladi (Jurayev, 2021).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolada xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil qilishda esa komparativ metodologiyadan foydalanilib, rivojlangan davlatlar (AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya) hamda mintaqaviy davlatlar (Qozog'iston, Turkiya) bank tizimlaridagi raqobatbardoshlikni boshqarish amaliyoti O'zbekiston sharoitiga qiyosiy tahlil asosida solishtirildi. Shu bilan birga, bank sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar bilan suhbatlar, banklar yillik hisobotlari va regulyator ma'lumotlariga asoslangan kontent-tahlil usuli tadqiqotga amaliy asos yaratdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy bank tizimi tobora murakkablashib borayotgan bozor sharoitida samarali raqobat yuritish uchun an'anaviy xizmat turlaridan chiqib, innovatsion yondashuvlarga asoslangan strategik transformatsiyani talab etadi. Innovatsiya — bu nafaqat yangi mahsulot yoki xizmat, balki jarayon, biznes modeli, texnologik interfeys va mijozga xizmat ko'rsatish uslubidagi o'zgarishlarni o'z ichiga oladigan keng tushunchadir. Bank sektorida innovatsion yondashuvlar ayniqsa raqamli texnologiyalar, xizmatlar avtomatlashtirilishi, mijozlar tajribasini yaxshilash va xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan. 2020–2025-yillarga mo'ljallangan Bank tizimini isloh qilish strategiyasi" doirasida O'zbekistonda moliyaviy inklyuziya, xizmatlar innovatsiyasi va banklarning xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilishi bo'yicha chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Bank raqobatbardoshligini o'rganishga doir oldingi tadqiqotlar orasida Qodirova (2019) tomonidan yozilgan magistrlik ishi alohida e'tiborga loyiq bo'lib, unda tijorat banklarining rentabellik ko'rsatkichlari asosida raqobat baholangan. Biroq, ushbu ishda raqamli xizmatlar va strategik boshqaruv yondashuvlari yetarli darajada qamrab olinmagan.

Peter Druckerning ta'kidlashicha, har qanday tashkilotda innovatsiya — bu qiymat yaratish jarayoni bo'lib, u mavjud resurslar, bilimlar va texnologiyalar asosida yangi mahsulot yoki xizmatlarga aylanishi kerak. Bu ta'rif bank faoliyatiga ham to'laqonli taalluqlidir, chunki banklar mijozlar bilan ishlash, tavakkalni boshqarish, ma'lumotlar bazasini tahlil qilish, xizmat tezligini oshirishda innovatsiyalarga tayanadi.

Innovatsiyalarning bank raqobatbardoshligiga bevosita ta'siri quyidagilarda namoyon bo'ladi:


- Bozorda farqlanish (differensiallashuv) – innovatsion xizmatlar orqali bank o'ziga xosligini yaratadi;
- Mijoz sodiqligi – yangi va qulay xizmatlar orqali mijoz ehtiyojiga mos xizmatlar ko'rsatiladi;
- Rivojlanayotgan bozor segmentlarini egallash – masalan, yoshlar, tadbirkorlar yoki raqamli savodli aholi uchun maxsus xizmatlar;

- Tejamkorlik va samaradorlik – avtomatlashtirilgan tizimlar orqali operatsion xarajatlar kamayadi.[6]

Jahon tajribasida, xususan, Singapurdagi DBS Bank, AQShdagi JPMorgan Chase va Janubiy Koreyadagi K-Bank'larning muvaffaqiyatli transformatsiyasi innovatsiyaning raqobatga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatishini

yaqqol ko'rsatadi. Bu banklar sun'iy intellekt, big data, raqamli identifikatsiya, fintech integratsiyasi orqali bozor yetakchisiga aylangan.[7]

Raqamli iqtisodiyot sharoitida kreditlarning innovatsion shakllaridan foydalanish tijorat banklarining kredit xizmatini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi. AQSh banklarining kreditlash amaliyotida kreditlarning innovatsion turlari bo'lgan kredit kartalari bo'yicha kreditlar va moliyaviy lizing kreditlar berish yaxshi rivojlangan.




1-rasm. Bank of America 2020-2024 yillar kesimi bo'yicha umumiy daromadi va uning taqsimlanishi (mlrd.dollar). [4]

Depozit operatsiyalari bo'yicha daromadlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2023-yil 4 choragida 1,905 mlrd dollar bo'lgan, 2024-yil 4 choragiga kelib 1,958 mlrd dollarga ko'tarilgan.

1-rasm ma'lumotlaridan aniq ko'rinadiki, Bank of America 2020-2024 yillar kesimi bo'yicha umumiy daromadlari keltirilgan bo'lib, Bank of America umumiy daromadlari 2020-yilga nisbatan 2024-yilda 16,4 mlrd. dollarga oshganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu rasmda Bankning eng yuqori daromadi sof foizli daromadlaridan kelayotganini ko'rsatilgan. Eng kam daromad olib keladigan xizmat turi esa, bu boyliklarni boshqaruv xizmat turi tashkil qilyapti.

Sof foiz daromadlari belgilangan deposit va kredit operatsiyalarini bajarish bilan amalga oshiriladi. Uning ko'rsatkichlari FTE o'zgarishlarini hisobga olmaganda 2023-yil 13,9 mlrd dollar ko'rsatgan va 2024-yil 4-choragiga kelib 14,4 mlrd dollarga ko'tarilgan.

2-rasmdagi tahlildan ko'rishimiz mumkinki, Bank of America bankining 2020-yildagi foydasi 17,9 mlrd. dollarni tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2024-yilda 27,1 mlrd.ni tashkil qilgan, tahlil natijalarida foyda miqdori 51,4%ga oshganini ko'rishimiz mumkin.



2-rasm. Bank of America 2020-2024-yillar kesimi bo'yicha sof foydasi (mlrd.dollar).[4]



Bank of America o'zining keng qamrovli xizmatlari va innovatsion yondashuvi bilan jismoniy shaxslar, bizneslar va institutlar uchun samarali moliyaviy yechimlarni taqdim etmoqda. Bankning ilg'or texnologiyalarga asoslangan xizmatlari mijozlarga qulaylik yaratib, moliyaviy boshqaruvni soddalashtirishga yordam beradi. Bank of America global miqyosda yetakchi banklardan biri bo'lib, moliyaviy barqarorlik va innovatsiyalarni birlashtirishda davom etmoqda.

O'zbekistonda esa Kapitalbank, Hamkorbank, TBC Bank singari subyektlar raqamli banklashuvda yetakchilik qilayotgan bo'lsa, Ipoteka-Bank, Agrobank va Xalq banki kabi yirik davlat banklari bosqichma-bosqich raqamli transformatsiyani boshlamogda. Bu esa sohada raqobatga turtki bo'lishi bilan birga, innovatsion tengsizlik muammosini ham yuzaga keltirmogda.[8]

Innovatsiyani muvaffaqiyatli joriy etish faqat texnologik omil bilan emas, balki madaniy va boshqaruv yondashuvi bilan bog'liq. Mijozga yo'naltirilgan falsafa, ichki kommunikatsiyaning ochiqqligi, eksperimentga tayyorlik va xatolardan o'rganish madaniyati innovatsion salohiyatni ochadi.[9]

Shunday qilib, bank sektorida innovatsion yondashuvlar bankning nafaqat bozor ulushini kengaytirish, balki xizmatlar sifati, mijoz sodiqqligi va ichki boshqaruv darajasini oshirish orqali uning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy vosita sifatida e'tirof etilishi lozim.

O'zbekiston bank tizimi so'nggi besh yilda raqamli transformatsiya bosqichiga faol kirib bordi. Bunda birinchi navbatda bank xizmatlarining raqamlashtirilishi, mobil ilovalar, fintech hamkorliklar, onlayn kreditlash va masofaviy xizmatlar orqali mijozga qulaylik yaratish ustuvor yo'nalish bo'lib xizmat qildi. Ushbu jarayonlar banklarning raqobatbardoshligini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Kapitalbank raqamli transformatsiyani jadal joriy qilgan xususiy bank sifatida alohida ajralib turadi. Bank 2021-yilda "MyKapitalbank" ilovasining yangi versiyasini ishga tushirgan bo'lib, u orqali mijozlar to'lovlar, hisob yuritish, omonat ochish, kredit olish, mijozga xizmat yozuvlari va valyuta konversiyasini real vaqt rejimida bajarishi mumkin. 2023-yil oxirida ushbu ilovadan faol foydalanuvchilar soni 2 milliondan oshgan.[10]

Bundan tashqari, Kapitalbank "ONCARD" deb nomlangan kontaktless karta tizimini, sun'iy intellekt asosidagi skoring tizimini, shuningdek, API orqali boshqa servislar bilan integratsiyani yo'lga qo'ydi. Bu bank xizmatlarining avtomatlashtirilish darajasini keskin oshirdi va operatsion xarajatlarni kamaytirdi. Fitch Ratings tahliliga ko'ra, Kapitalbank 2023-yilda raqamli xizmatlar qamrovi bo'yicha Markaziy Osiyo banklari orasida eng ilg'or o'ntalikdan o'rin olgan.[11]

Hamkorbank o'zining mintaqaviy raqamli yondashuvi bilan ajralib turadi. U 2020–2023 yillar oralig'ida "Hamkor Mobile" ilovasini to'liq qayta ishladi, interfeysini yangiladi va raqamli imzo, onlayn mikrokreditlar, QR-to'lov va shaxsiy kabinet orqali soliq to'lov xizmatlarini joriy qildi.[12] Bank shuningdek, Mastercard va Visa bilan hamkorlikda biometric identifikatsiyaga asoslangan to'lov yechimlarini ishga tushirdi.

Hamkorbankning alohida innovatsion yondashuvi — bu aqlli mikrokreditlar algoritmi bo'lib, u tadbirkorlar uchun real vaqt asosida kredit olish imkonini beradi. Uskuna/kafolat taqdim etmasdan, faqat aylanmadan kelib chiqib kredit ajratiladi. Bu esa ayniqsa kichik biznes uchun raqamli xizmatlar orqali moliyalashtirish muhitini yaratadi.[13]

Ipoteka-Bank, davlat ishtirokidagi yirik bank bo'lishiga qaramay, so'nggi yillarda raqamli transformatsiyani bosqichma-bosqich joriy etmoqda. Bank 2021-yildan buyon "Ipoteka Mobile" ilovasi orqali omonat ochish, kredit so'rash va to'lov xizmatlarini yo'lga qo'ydi. 2023-yilda bank yangi platforma asosida raqamli ipoteka kreditlarini masofaviy tartibda rasmiylashtirish xizmatini taqdim etdi.[14]

Bankning asosiy ustunliklaridan biri bu – davlat dasturlari doirasida subsidiyalangan kreditlarni raqamli usulda avtomatlashtirishga qaratilgan pilot loyihalardir. Biroq, Ipoteka-Bankdagi raqamli xizmatlar darajasi hali ham xususiy banklar darajasiga yetmagan. Markaziy bank reytingiga ko'ra, bank 2023-yilda raqamli xizmatlar samaradorligi bo'yicha 8-o'rinda qayd etilgan.[15]

Kapitalbank, Ipoteka-Bank va Hamkorbankning faoliyati bo'yicha amalga oshirilgan tahlillar banklararo raqobatbardoshlik darajasini aniqlash va ularning o'zaro ustunlik tomonlarini aniqlashga xizmat qiladi. Quyida asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha solishtirma jadval keltiriladi:

1-jadval. Kapitalbank, Ipoteka-Bank va Hamkorbank faoliyatining asosiy raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari (2023-yil holati bo'yicha)[5]

Ko'rsatkichlar	Kapitalbank	Ipoteka-Bank	Hamkorbank
Jami aktivlar (2023, trln so'm)	16.4	35.0	12.7
Sof foyda (2023, trln so'm)	1.1	1.5	0.9
ROA (%)	2.5	1.7	2.3
ROE (%)	18.9	14.3	17.6
Mobil ilova foydalanuvchilari (%)	83	58	72

Mijozlar bahosi (ijobiy) (%)	84	72	78
Raqamli xizmatlar darajasi	Yuqori	O'rta	O'rta-yuqori
Hududiy qamrov (filiallar soni)	95+	180+	120+

Ushbu raqamlar shuni ko'rsatadiki, Kapitalbank xususiy bank sifatida rentabellik (ROA, ROE), raqamli xizmatlar darajasi va mijozlar ishonchi bo'yicha ustunlikka ega. Ipoteka-Bank esa kapital bazasi va filiallar soni bo'yicha yetakchilik qiladi, ammo innovatsiya joriy etishda ortda qolmoqda. Hamkorbank esa balanslangan strategiyaga ega bo'lib, mintaqaviy ustunlik, mikroqarzarlar va mijozga yo'naltirilgan yondashuv bo'yicha o'zini mustahkam tutmoqda.

Raqamli transformatsiya jarayonida banklar asosan quyidagi komponentlarni joriy qilmoqda:

- Mobil banking va superapplar: foydalanuvchilar uchun barcha xizmatlarni bir joyda to'plash (Kapitalbank, TBC Bank);
- Sun'iy intellekt: mijoz skoringi, chatbotlar, moliyaviy maslahatlar (Kapitalbank, Aloqabank);
- Fintech integratsiyasi: Payme, Click, Apelsin bilan hamkorlik (Hamkorbank, Kapitalbank);
- Blockchain yechimlari: ayrim tranzaksiyalarni tezlashtirish va xavfsizlikni oshirish (Agrobank, eksperiment shaklida);

- CRM va big data tahlil: mijozlar harakatini bashoratlash, sodiqlikni oshirish.[16]

O'zbekiston bank sektoridagi transformatsiyaning asosiy qo'zg'atuvchi kuchlari quyidagilar bo'lmoqda:

1. Aholining yosh demografiyasi – raqamli xizmatlarga talab yuqori;
2. Smartfonlar va internet qamrovining oshishi – xizmatlarga doimiy kirish imkoniyati;
3. Regulyator islohotlari – masalan, masofaviy identifikatsiyaga ruxsat, fintech uchun litsenziya siyosati;
4. Xalqaro moliyaviy institutlar bosimi – shaffoflik, hisobdorlik va xizmatlar sifatiga e'tibor.[17]

Alohida e'tiborga molik jihat shuki, raqamli xizmatlar banklarning operatsion xarajatlarini kamaytiradi, masalan, Hamkorbank 2023-yilda har bir tranzaksiya uchun o'rtacha xarajati 27% ga qisqartirgan.[18] Shuningdek, foydalanuvchi tajribasi yaxshilanishi bilan mijoz aylanishi kamaygan, bu esa mijoz sodiqligini oshirgan.

Raqamli xizmatlarning kengayishi shuningdek, banklar uchun yangi raqobat maydonini yaratmoqda: endi banklar faqat moliyaviy ko'rsatkichlarda emas, balki ilova dizayni, xizmat tezligi, keshbek tizimi, onlayn javob berish vaqti bo'yicha ham baholanmoqda. Bu esa raqobatning yangi paradigmasini shakllantirmoqda.

Innovatsion strategiyalar asosida barqaror raqobatni shakllantirish yondashuvlari. Raqamli transformatsiyani bank faoliyatiga joriy qilish bugungi kunda texnik yangilikdan ko'ra ko'proq strategik zaruratga aylangan. Innovatsiyalarni strategik boshqaruv darajasida qo'llash banklarga nafaqat bozor sharoitida moslashuvchan harakat qilish, balki xizmat ko'rsatishda differensial ustunlikka erishish imkonini beradi. Shuningdek, bu transformatsiya banklarning foyda olish modelini tubdan o'zgartirib, yangi raqamli ekotizimlar orqali mijozlarni jalb qilish va ularni saqlab qolishni ta'minlaydi. Masalan, Kapitalbank o'z strategik rivojlanishida raqamli xizmatlarni asosiy ustuvor yo'nalish sifatida belgilagan bo'lib, mobil ilova orqali xizmat ko'rsatish, sun'iy intellekt asosidagi baholash tizimlari va API integratsiyasini birlashtirgan holda bozorda yetakchilikni mustahkamlab bormoqda.[19] TBC Bank esa butun faoliyatini "digital-only bank" modeli asosida shakllantirib, xizmatlarning 100 foizini masofaviy formatda amalga oshirishga intilmoqda, bu esa raqobat paradigmasini tubdan o'zgartirmoqda.

Innovatsion strategiyalar banklarda faqat texnologik echimlar joriy etilishi bilan cheklanmaydi. Bu jarayonda xodimlarning raqamli madaniyati, mijoz ehtiyojlarini ilg'ab olish qobiliyati, xavflarni boshqarish mexanizmlari va moliyaviy texnologiyalar bilan hamkorlik qilish kompetensiyasi asosiy tayanchga aylanmoqda. Hamkorbank misolida bu yondashuvni yaqqol ko'rish mumkin: u raqamli mikrokredit tizimini joriy qilib, mijoz aylanish tezligini kamaytirgan, xizmatlar tezligini oshirgan va mintaqaviy tadbirkorlar orasida sodiqlik darajasini ko'targan. Bunday amaliy natijalar strategik innovatsion yondashuvlar samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, Ipoteka-Bank davlat ishtirokidagi bank bo'lishiga qaramay, xizmatlar soddalashtirilishi va masofaviy kreditlash tizimlarini yo'lga qo'ygan holda transformatsiyani bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda.

Raqamli transformatsiyani strategik darajada boshqarish uchun banklar o'zlarining "raqamli yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishlari zarur. Bu xarita bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan loyihalar, xizmat turlari, mijoz segmentlari va raqamli mahsulotlar rejasini o'z ichiga olishi kerak. Shu bilan birga, innovatsion hamkorliklar, ya'ni fintech kompaniyalar bilan integratsiyalashuv, API platformalar orqali xizmatlar ochiqligini ta'minlash va superapplar yaratish banklarga xizmatlar doirasini kengaytirish imkonini beradi. McKinsey ma'lumotlariga ko'ra, bunday ochiq bank modeli foydalanuvchilar sonini 40% gacha oshirishga xizmat qiladi, bu esa raqobatbardoshlikni bevosita ta'sirlaydi.

Innovatsion yondashuvlarda muhim jihatlardan yana biri bu – xizmatlarni mijoz ehtiyojiga moslashtirish, ya'ni individuallashtirilgan, intuitiv va foydalanuvchi uchun qulay xizmatlarni yaratishdir. Bunda CRM tizimlari, katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) va real vaqtli tahlillar orqali mijoz harakati kuzatiladi, takliflar shunga



qarab shakllantiriladi. Shu asosda Kapitalbank va Hamkorbank foydalanuvchilarni segmentatsiyalash orqali ularning ehtiyojiga mos xizmatlar paketini taqdim etmoqda. Bu strategiya nafaqat mijoz sodiqligini oshiradi, balki ularning bankdan uzoqlashuvining oldini oladi.

Innovatsiyalar bilan bog'liq eng muhim strategik elementlardan yana biri – xavflarni boshqarishdir. Raqamli sohadagi kiberxavfsizlik, texnik nosozliklar, ma'lumotlar integratsiyasi bilan bog'liq xatarlar doimo mavjud. Shu bois, banklar xavfni baholovchi AI tizimlar, tezkor xavfsizlik javob algoritmlari va "ethical hacking" xizmatlaridan foydalana boshlagan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki bu borada moliyaviy tashkilotlar uchun kiberxavfsizlik asoslari bo'yicha alohida metodik ko'rsatmalar ishlab chiqqan bo'lib, banklar ularni strategik xavfsizlik siyosatiga kiritishi lozim.

Qisqacha aytganda, innovatsiyalar va raqamli transformatsiyani strategik darajada joriy etgan banklarga uzoq muddatli raqobatbardoshlikka erisha oladi. Chunki bu yondashuv orqali nafaqat mijoz bazasi kengayadi, balki xizmat sifati, operatsion samaradorlik va bozor ulushi ham ortadi. O'zbekiston sharoitida Kapitalbank, TBC Bank va Hamkorbank bunga amaliy misol bo'la oladi. Kelgusida raqobat faqat foyda ko'rsatkichlari emas, balki innovatsion salohiyat, texnologik quvvat va mijozga xizmat falsafasiga asoslanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan strategik yo'nalishlar, innovatsion yondashuvlar va amaliy tavsiyalar tizimli tarzda ishlab chiqildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy bank sektori sharoitida raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun faqat moliyaviy ko'rsatkichlar bilan cheklanilmasdan, kompleks boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish zarur.

Birinchi, innovatsion yondashuvlar va raqamli transformatsiya banklar uchun raqobat ustunligini shakllantirishda asosiy drayverga aylanmoqda. Masofaviy xizmatlar, mobil banking, onlayn kreditlash, API integratsiyasi kabi texnologiyalar banklar faoliyatini nafaqat qulaylashtirmoqda, balki mijoz tajribasini tubdan o'zgartirib, sodiqlik darajasini oshirmoqda. Bu esa banklararo raqobatda ustunlikni ta'minlovchi omillardan biriga aylandi.

Ikkinchi, strategik boshqaruv vositalari – jumladan, xizmatlar diversifikatsiyasi, inson kapitaliga investitsiya, mijozlar segmentatsiyasi va shaxsiylashtirilgan marketing strategiyalari – raqobatbardoshlikni uzoq muddatli saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, mijozga yo'naltirilgan xizmat modeli va foydalanuvchi tajribasiga asoslangan qarorlar bank-mijoz munosabatlarining mustahkamlanishiga olib keladi.

Uchinchi, O'zbekiston bank sektorida raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan quyidagi yo'nalishlar ajratib ko'rsatildi:

- Bank xizmatlarini soddalashtirish va raqamli formatga o'tkazish orqali mijozlar uchun qulaylikni oshirish;
- Inson kapitalini rivojlantirish va malaka oshirish dasturlarini joriy etish;
- Marketing faoliyatida differensial yondashuv va mijoz sodiqligini kuchaytiruvchi dasturlarni ishlab chiqish;
- Fintex tahdidlarini hamkorlik imkoniyatiga aylantirish (masalan, API asosida integratsiya);
- Davlat ishtirokidagi banklarda xususiy sektor tajribalarini tatbiq etish va boshqaruv samaradorligini oshirish.

Mazkur tavsiyalar "O'zbekiston-2030" strategiyasi, Markaziy bank siyosati va xalqaro ilg'or tajribalar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ular banklar faoliyatini zamonaviy talablar asosida transformatsiya qilishga xizmat qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, banklarning raqobatbardoshligini oshirish faqat iqtisodiy texnikalar emas, balki mijozlar bilan ishonchli, innovatsion va barqaror aloqalar o'rnatish orqali mumkin bo'ladi. Shu bois, strategik boshqaruv, texnologik yangilanish va insoniy omilga asoslangan yondashuvlar bank sektorining kelajakdagi raqobat salohiyatini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. World Bank. Uzbekistan Financial Sector Reform Strategy 2020–2025. – Washington D.C., 2020. <https://www.worldbank.org/en/publication/gfdr>
2. Claessens S. (2009). Competition in the Financial Sector: Overview of Competition Policies. IMF Working Paper No. 09/45. Link: <https://www.imf.org/en/Publications/WP/Issues/2016/12/31/Competition-in-the-Financial-Sector-Overview-of-Competition-Policies-22739>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 fevraldagi PF-37-son-O'zbekiston-2030 strategiyasini «Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi Farmoni.
4. Bank of America – www.bankofamerica.com ma'lumotlari
5. Kapitalbank, Ipoteka-Bank, Hamkorbank yillik hisobotlari (2023); O'zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi (2023); Markaziy bank statistik byulleteni (2023).
6. O'zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi. O'zbekiston bank sektorida innovatsiyalar sharhi, 2023. – www.uba.uz.
7. World Bank. Digital Banking Transformation Report, 2023. – www.worldbank.org



8. CBU. Banklar raqamli transformatsiyasi bo'yicha monitoring natijalari, 2023. – www.cbu.uz
9. McKinsey & Co. Building an Innovation Culture in Financial Services, 2022. – www.mckinsey.com
10. Kapitalbank. MyKapitalbank ilovasi tahlili, 2023 – www.kapitalbank.uz
11. Fitch Ratings. Digital Banking in Central Asia, 2023 – www.fitchratings.com
12. Hamkorbank. Hamkor Mobile 3.0 taqdimoti, 2023 – www.hamkorbank.uz
13. O'zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi. Aqlli kreditlash tizimlari tahlili, 2023 – www.uba.uz
14. Ipoteka-Bank. Yillik hisobot va "Ipoteka Mobile" faoliyati, 2023 – www.ipotekabank.uz
15. CBU. Banklar raqamli xizmatlar samaradorligi reytingi, 2023 – www.cbu.uz
16. McKinsey & Co. The Rise of Superapps in Emerging Markets, 2022 – www.mckinsey.com
17. World Bank. Uzbekistan Digital Finance Review, 2023 – www.worldbank.org
18. Hamkorbank yillik hisobot, 2023 – www.hamkorbank.uz
19. Kapitalbank. Ilova sodiqligi tahlili, 2023 – www.kapitalbank.uz
20. TBC Bank Uzbekistan. Digital-only model, 2021–2025 – www.tbcbank.uz

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100